

## **KEKSALIK VA KEKSALIK PSIXOLOGIYASI**

**ADPI Maktabgacha ta’lim yo’nalishi  
Sirtqi ta’lim shakli 102-guruh Fazliddinova Muattar**

**Annatsiya:** Ushbu maqolada keksalar psixologiyasini o’rganish, kishilar yoshini uzaytirish, keksa yosh kishilar salomatligini va faolligini saqlash, jamiyatning nuroniylar qatlamini muhofaza etish, ularning bilimlaridan va faoliyatidan jamiyat uchun manfaatli foydalanish xaqida fikrlar keltirilgan

**Kalit so’zlar:** Gerantologiya, geteroxronlik, keksalar psixologiyasi, keksalik, depressiya, aqliy faollik, nuroniylar.

Bugungi sokin osmon ostida bir yoqadan bosh chiqarib yashayotgan ko’p millatli xalqimiz yoshi ulug’larimizga o’zgacha e’tibor ko’rsatmoqda. Boisi qarisi bor uying pari bor degandek keksalarimiz hayot tajribalari, donoliklari orqali o’sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda ularning o’rni beqiyos. Shunga qaramay keksalarimizda Yoshi ulg’aygan sari ko’ngillari noziklashib ularda depressiyaga uchrash hodisasi ko’paymoqda. Bu sohada gerantologiya tadqiqotlari bizga yordamga keladi. Bemorlar eng ko’p tashxislanadigan psixiatrik kasalliklardan biri bo’lgan depressiya butun dunyo bo’ylab aholining turli qatlamlarida tobora ko’payib borayotgan tashxis qo’yilmoqda. Birgina Qo’shma Shtatlardagi depressiya har yili 17,6 million amerikalik yoki har 6 kishidan 1 nafariga ta’sir qiladi.[1] Keksalar depressiyadan saqlash ularni faolligini saqlash uchun avvalo oila a’zolari tomonidan alohida etibor va parvarish talab etiladi

Bugungi zamonda olimlar tomonida ko’plab jabhada ilmiy ilshlar olib borib, muammolar uchun samarali yechim usullari va turlari haqida ko’plab tadqiqot natijalarini qidirib topishgan. Jumladan keksalar salomatli sohasini chuqur o’rganuvchi soha gerogigiena, gerantologiya, geterexonlik kabi soha bilimlaridan o’rganib hayotimizga tadbiiq qilish keksalarimiz faolligini saqlash va umrini uzaytirish uchun zarur bilimlar bilan boyitilgan.

Keksalari bor xonadonda quvonch, fayz-baraka, xotirjamlik hukm suradi. Yoshi ulug’larga ehtirom, e’tibor va g’amxo’rlik ko’rsatish esa necha ming yillardan buyon yashab kelayotgan boqiy qadriyatlarimizdan hisoblanadi.

Davlatimiz tomonidan ham keksalar e’zozlanib, g’amxo’rlik ko’rsatib kelinmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 sentyabrdagi “Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o’rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaroriga asosan joriy yilda “Keksalar haftaligi” kunlari e’lon qilindi va barcha hududlarda turli tadbirlar tashkil etilib, nuroniylar holidan xabar olindi. Olimlar kuzatuv natijasida keksalarda bolalikka qaytish shakllanadi. Bunga misol qilib R.Tagorning 25 yoshida yozgan “Kelin ” she’ri bilan 70 yoshida yozgan “Sarob” asari o’xshashligida ham naoyon bo’ladi. Yoshi ulg’aygan sari ko’ngli noziklashib, faoliyati sekinlashib boradi. Esda saqlashga, sezgi organlariga nozik ruhiyatiga yillar o’z ta’sirini o’tkazadi.

Hozirgi sharoitda odamda qarilikning dastlabki belgilari yetuklik davrida, ya’ni 60-65 yoshda yuz bermoqda. Ammo tamaki chekadigan va muntazam spirtli ichimlik iste’mol qiladiganlarda bu jarayon boshqalarga qaraganda 15-20 yil oldin boshlanadi. Bundan tashqari, a’zoldagi to’qimalarning qanchalik kech yoki erta atrofiyaga uchrashi irsiyat va odamlarning qaysi sohada mehnat qilayotganiga ham bog’liq. Asab sistemasining qarishi borasidagi tadqiqotlarda, jumladan:

V.D.Mixaylova, M.M.Aleksandrovskeya kabi olimlarning fiziologik va gistologik tadqiqotlarida keksalarning asab sistemasi o’rganilgan bo’lib, bu xol makroskopiya va mikroskopiya ma’lumotlari asosida ifodalangan. [2] Makroskopiya ma’lumotiga ko’ra:

- keksalik davrida miyaning og’rligi 20-30 % yengillashadi;
- bir davrning o’zida miya bilan kalla suyagining hajmi o’rtasida dispropotsiya kuchayadi;
- keksayish davrida miya burmalari kamayadi va ariqchalari kengayishi kuzatiladi, bular ayniqsa miya qobig’ining peshona qismida yaqqol

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

ko‘rinadi va yetuk yoshdagi odamlarga qaraganda 3-4ta yo‘l qisqaradi;

—miyaning zichligi ortadi.

Mikroskopiya natijalariga binoan:

—nerv xujayralarining umumiy miqdori kamayadi, bu o‘zgarish miya qobig‘ining III, V zonalarda aniq bilinadi;

—Purkine hujayralarining miqdori keskin kamayadi, hujayralarning yo‘qolishi 25% ko‘p bo‘ladi;

—nerv hujayralari ajinlashadi: yadro esa noto‘g‘ri ko‘rinishga ega bo‘la boshlaydi;

—nerv tolalari yo‘g‘onlashadi;

—habar olib boruvchi yo‘lda mielin tolalarining miqdori ozayadi.(darslikdan)

Masalaning mohiyatiga psixologik jihatlariga yondashadigan bo‘lsak, keksalik davrida organizmning biologik zayiflashuvipsixik jarayonlarning ham o‘zgarishiga olib kelishini aytib o‘tishimiz mumkin. Ruhiiy keksayish alomatlarini 5 ayollarda ertaroq paydo bo‘ladi. Erkak va ayollar o‘rtasidagi farqlar borgan sari yaqqol ko‘zga tashlana boshlaydi. Bu farqlar bilish jarayonlari (sezgi, idrok, xotira, tafakkur), axloqqacha (farosatlilik, hushyorlik, hozirjavoblik, topqirlik), va aql-zakovat (aql, bilim, ijtimoiy tajriba, mahorat, ijodiy faoliyat, barqaror malaka) kabi ruhiy holatlarda o‘z aksini topadi

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki bugun mamlakatimizda keksa avlod vakillariga qaratilayotgan yuksak e‘tibor shundoq ham ularning tilidan tushmas shukronalik hissini ming chandon oshirdi. Shuning uchun ham sakson-to‘qsonni qoralasa-da, qaddi baland nuroniylarimizning ruhiyati tetik, ishga chanqoq. Ayni qutlug‘ kunlarda esa, barchasining duoga ochilajak qo‘llari Yaratgandan yurtga tinchligu, mo‘l rizq so‘raydi. Bu esa kelajakda ulkan samaralar berishi mumkin. Uning ahamiyati shundaki, yangi texnologiya, ya‘ni davolashning mikrominiatyurizatsiya usuli organizmdagi zararlanishi mumkin bo‘lgan «hudud»lar va atrofiyaga uchrash ehtimoli yuqori bo‘lgan to‘qimalarni erta aniqlash hamda ularni bartaraf etish imkonini beradi. Bu esa insoniyat genofondida xususan keksalarning ham muayyan o‘rni borligini bildiradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Internet sahifasidan olingan ma‘lumotlar
2. Do‘stmuxamedova Sh.A., Tillashayxova X.A., Baykunosova G.Yu., Ziyavitdinova G.Z., «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya» - Darslik Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU, 2021y.
2. Ivanov I., Zufarova M. “Umumiy psixologiya”. O‘z.FMJ., 2008.
3. Davletshin M.G., Mavlonov M.M, To‘ychiyeva S.M. “Yosh va pedagogik psixologiya” T. TDPU, 2009 .